

**O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi quyidagi lavozim uchun ish
o'rni mavjud ekanligini e'lon qiladi**

【Umumiy ma'lumot】

1. Ishga qabul qilinadigan shaxslar soni

1 kishi

2. Ish joyi

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi

3. Topshiriladigan ish va vazifalar

Konsullik bo'limi (vizalar, yapon fuqarolarini himoyasi, Konsullik bo'limiga aloqador tashkilotlar bilan aloqarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, verbal notalar tayyorlash va hoqazo)

4. Ish sharoitlari va boshqa ma'lumotlar

(1) Shartnoma muddati

2026 yilning mart oxiridan boshlab rejalashtirilgan

※ 3 oylik sinov muddatidan so'ng rasmiy ishga qabul qilinadi

(2) Oylik maoshi hamda mukofot pullari

Elchixonaning qoidalariga muvofiq belgilaniladi.

(3) Ish tartibi

Dushanbadan jumagacha, 9:00 dan 17:30 gacha (Elchixonaning ish kunlariga muvofiq). Biroq zarurat bo'lganda, yuqoridagi vaqtlardan tashqari ish bo'lishi ehtimoli bor.

【Arizachilarga qo'yiladigan talablar】

1. Fuqarolik

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs

2. Ish faoliyati uchun zarur bo'lgan malaka va qobiliyatlar

(1) Oliy ta'lim muassasasi (yoki unga teng muassasa)ni bitirgan yoki bitirish arafasida bo'lishi.

(2) Yapon, o'zbek va rus tillarida ish faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli darajada til bilish qobiliyatiga ega bo'lishi. Shuningdek, ish faoliyatini amalga oshirishda kamida minimal ingliz tilini bilish darajasiga ega bo'lishi.

(3) Ishga qabul qilingan paytdagi yoshi 45 yoshdan oshmagan bo'lishi.

(4) Jiddiy va samimiy bo'lib, ishga alohida e'tibor qaratish qobiliyatiga ega bo'lishi.

(5) Yuqori darajadagi stressga chidamlilikka ega bo'lishi.

(6) Avtomobil haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Boshqa shartlar

- (1) Toshkent shahrida yoki Toshkent shahri yaqinida ro'yxatga olingan bo'lishi.
- (2) Jismonan va ruhonan sog'lom bo'lishi.
- (3) Jinoiy tarixga ega bo'lmashlik.

【Ariza topshirish usuli】

Quyida ko'rsatilgan ariza hujjatlarini 2026 yil 3 oy 10 kuni (Seshanba) soat 17:00 ga qadar ilova qilingan hujjatlar sifatida elchixonaga elektron pochta orqali yuborishi kerak. Taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar faqat tanlov maqsadlarida ishlatiladi va tanlovdan tashqari boshqa maqsadlarda foydalanilmaydi.

- Ariza hujjatlari (topshirilgan hujjatlar qaytarilmaydi)

(1) Rezyume

Rus, ingliz yoki yapon tilida to'ldirilishi kerak, ism-sharifi, fotosurat, tug'ilgan sana, joriy yashash manzili, telefon raqami, ish tajribasi, mavjud malaka va hokazolarni ko'rsatib o'ting.

(2) Pasport yoki ID kartaning nusxasi

(3) Oxirgi ta'lim hujjati (diplom va hokazo), boshqa mavjud malaka hujjatlarining nusxasi

(4) Insho

Mavzu: "Men konsullik bo'limi xodimi sifatida ishlashni xohlashimning sabablari".

Yuqoridagi mavzuda yapon tili yoki rus tilida inshoni tayyorlab topshiring.

- Qabul qiluvchi:

visa@ts.mofa.go.jp

【Tanlov jadvali】 (o'zgarishi ehtimoli mavjud)

1 Hujjatlarni ko'rsatish (oxirgi muddat: 10-mart (seshanba), 17:00)

2 Suhbat sifatida ogzaki imtihoni (o'zbek, rus, yapon va ingliz tillarida)

[Boshqalar]

Ushbu masala bo'yicha savollar quyidagi electron manzilga yuborilishi lozim:

visa@ts.mofa.go.jp